



MULTIMEDIAL MUHITDA MUSTAQIL O'QISHGA RAG'BATLANTIRUVCHI RESURLARNI YARATISH IMKOIYATLARI

Shahnoza Bahromova Munisjon qizi

OSIYO XALQARO UNIVERSITETI (BUXORO)

bahromovashahnoza5@gmail.com

+998941809700

ANNOTATSIYASI

Tayanch so'zlar: : Multimediali muhit, mustaqil o'qish, elektron darslik, videodarslar, animatsiya, interaktiv dasturlar, kompetensiya, motivatsiya, ta'lim texnologiyalari, pedagogik metodika, raqamli ta'lim, o'qitish samaradorligi, axborot-resurslar, mustaqil ta'lim, innovatsion texnologiyalar.

Tadqiqotning obyekti: Tadqiqot obyekti multimediali ta'lim muhiti sharoitida o'quvchilarning mustaqil o'qish jarayoni.

Tadqiqotning maqsadi: Multimediali ta'lim muhiti imkoniyatlaridan foydalanib o'quvchilarning mustaqil o'qish jarayonini samarali tashkil etish, ularning o'quv motivatsiyasi va kompetensiyalarini rivojlantiruvchi metodikani ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari: multimePedagogik kompetensiya – bu o'qituvchi egallashi shart bo'lgan ko'nikmalardan biri bo'lib, u kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalar bilan bir qatorda turadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi hamda pedagogik kompetensiyaning moliyaviy hisob fanidagi o'quv natijalariga ta'sirini aniqlashdir. Tadqiqot 36 nafar kasb-hunar maktabi o'quvchilari o'rtasida eksplanator (tushuntiruvchi) tadqiqot sifatida o'tkazildi. Ma'lumot manbalari sifatida semestr yakuniy baholari va so'rovnoma natijalari olindi. Ma'lumotlarni yig'ishda hujjatlar tahlili va anketa usullari qo'llanildi. Tadqiqot natijalari deskriptiv va inferensial



tahlil orqali aniqlab chiqildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi va o'qituvchining pedagogik kompetensiyasi moliyaviy hisob fanini o'zlashtirish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Regressiya tahlili asosida doimiy qiymat 98,850, o'qish motivatsiyasi ko'rsatkichi 0,345 va pedagogik kompetensiya ko'rsatkichi 0,377 ekanligi aniqlandi. Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning motivatsiyasi hamda o'qituvchining pedagogik mahorati moliyaviy hisob bo'yicha o'quv natijalariga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, behavioristik (xulq-atvor) nazariyasining amaliyotda o'zini oqlashini ham tasdiqlaydi.

Multimedial muhitda mustaqil o'qishni rag'batlantiruvchi resurslarni yaratish ahamiyati.

Bugungi raqamli ta'lim sharoitida multimedial resurslar (video, audio, animatsiya, interaktiv testlar, virtual laboratoriyalar) o'quvchilarning mustaqil bilim olishini kuchli qo'llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, biz kabi maktabda dars beradigan o'qituvchilar uchun bu yo'nalish dolzarb hisoblanadi.

1. O'quv motivatsiyasini oshiradi:

Multimedial materiallar matnga qaraganda qiziqarliroq va tushunarliroq bo'ladi. Rangli animatsiyalar, tajriba videolari yoki interaktiv topshiriqlar o'quvchida qiziqish uyg'otadi va mustaqil o'rganishga undaydi.

2. Individual ta'limni ta'minlaydi:

Har bir o'quvchi materialni o'z tezligida o'rganishi mumkin. Masalan, video darsni qayta ko'rish, testni qayta ishlash imkoniyati mustaqil o'qish samaradorligini oshiradi.

3. Nazorat va o'z-o'zini baholash imkonini beradi:

Onlayn testlar va avtomatik baholash tizimlari o'quvchiga o'z bilim darajasini darhol tekshirish imkonini beradi. Bu esa mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

4. Amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi



Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar (ayniqsa kimyo fanida) xavfsiz sharoitda tajriba o'tkazish imkonini beradi. Bu o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

5. Axborot-kommunikatsion kompetensiyani shakllantiradi

Multimedial resurslar bilan ishlash jarayonida o'quvchi raqamli savodxonlikni ham egallaydi.

6. Ta'lim sifatini oshiradi:

Mustaqil o'qish samarali tashkil etilsa, o'quvchi bilimni chuqurroq va uzoq muddat eslab qoladi. Ta'lim samaradorligini oshiradi.

Multimedial vositalar (video, animatsiya, audio, interaktiv testlar) orqali berilgan ma'lumot tezroq va chuqurroq o'zlashtiriladi. Bu bilimning mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. Mustaqil ta'lim ko'nikmasini shakllantiradi o'quvchi materialni o'zi izlab topadi, o'rganadi va nazorat qiladi. Natijada o'zini-o'zi boshqarish va mas'uliyat hissi rivojlanadi.

Motivatsiyani kuchaytiradi

Zamonaviy, qiziqarli formatdagi resurslar o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va uni faol o'rganishga undaydi. Individual yondashuvni ta'minlaydi

Har bir o'quvchi o'z qobiliyati va tezligiga mos ravishda materialni o'zlashtiradi. Bu esa ta'limdagi farqlarni kamaytiradi. Raqamli kompetensiyani rivojlantiradi.

Multimedial resurslardan foydalanish o'quvchilarda axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Nazorat va tahlil imkonini beradi onlayn platformalar orqali o'quvchining faoliyati monitoring qilinadi, natijalar tahlil qilinadi va ta'lim sifati yaxshilanadi.

Mustaqil ta'lim kompetensiyasining ahamiyati.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. "Multimediali muhitda mustaqil o'qishga rag'batlantiruvchi resurslarni yaratish imkoniyatlari" masalasi so'nggi



yillarda ta'lim jarayonida keng tadqiq qilinayotgan dolzarb yo'nalishlardan biridir. Mazkur mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Xorijiy pedagogika ilmda multimediali ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish, talabalarning o'zlashtirish darajasiga ko'rsatadigan ta'siri, mustaqil o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirish borasida J. Bruner, B. Bloom, R. Mayer, N. Nillson, L. Laurillard kabi olimlarning ishlari muhim o'rin tutadi. Ularning tadqiqotlarida multimedia vositalari o'quvchini faollashtirish, axborotni ko'rgazmali va tushunarli shaklda yetkazish hamda mustaqil o'qish jarayonini samarali tashkil etishning asosiy omillaridan biri ekanligi qayd etilgan.

Jumladan, Richard Mayer tomonidan ilgari surilgan multimedial o'qitish nazariyasi o'quv materiallarini matn va tasvir uyg'unligida berish samaradorligini ilmiy asoslab bergan. John Swellerning kognitiv yuklama nazariyasi esa axborotni optimal hajmda taqdim etish zarurligini ko'rsatadi. Lev Vygotsky ta'limning ijtimoiy-madaniy nazariyasida mustaqil o'qish va rivojlanish zonasi tushunchalarini asoslab bergan.

O'zbekistonlik pedagog olimlar orasida ham multimediali ta'lim, raqamli resurslardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limdagi ahamiyati bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, A. Abduqodirov, Sh. Hasanov, R. Abdurahmonov, Z. Kadirova, M. Jo'rayevlarning ishlari ta'limda raqamli platformalar, elektron darsliklar, videodarslar va interaktiv o'quv dasturlaridan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlarini yoritadi.

So'nggi yillarda raqamli ta'lim bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari, strategiyalar va uslubiy qo'llanmalar mazkur yo'nalishning yanada chuqur o'rganilishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, mustaqil o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish, o'qitish jarayonini multimedia vositalari asosida tashkil etish bo'yicha tajribaviy tadqiqotlar soni ortib bormoqda.



Shu bilan birga, mavjud ilmiy izlanishlar ko'p bo'lishiga qaramay, multimediali muhitning mustaqil o'quv faoliyati samaradorligiga ta'sirini tizimli o'rganish, multimedia vositalari orqali talabaning mustaqil o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, shuningdek, raqamli resurslardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar yaratish kabi yo'nalishlar hali to'liq tadqiq qilinmagan.

Demak, mavzu o'rganilgan bo'lsa-da, uni yanada chuqur ilmiy asosda yoritish, amaliy-tajriba ishlarini olib borish va yangi pedagogik texnologiyalarni taklif etish zarur.

Tadqiqotning maqsadi: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - multimediali ta'lim muhitidan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish va bilimlarni mustaqil egallash imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat

Tadqiqot ishining ilmiy va amaliy ahamiyati: 7-maktabning 7-sinf o'quvchilari uchun multimedial o'quv resurslari (video darslar, animatsiyalar, interaktiv testlar, taqdimotlar) ishlab chiqildi.

Multimedial materiallar asosida 7-sinf o'quvchilarining mustaqil uy vazifalarini bajarish va o'z-o'zini nazorat qilish tizimi yo'lga qo'yildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida 7-sinf o'quvchilarining darsga qiziqishi va mustaqil ishlash faolligi oshgani kuzatildi. Nazorat va tajriba guruhlar natijalari taqqoslanganda, multimedial resurslardan foydalangan o'quvchilarning bilim ko'rsatkichlari yuqoriroq ekani aniqlandi. O'quvchilarda raqamli vositalardan mustaqil foydalanish ko'nikmasi shakllandi. Multimedial resurslardan muntazam foydalanish natijasida o'quvchilarning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi yaxshilandi.

Xulosa: Multimediyali muhitda mustaqil o'qishga rag'batlantiruvchi resurslarni yaratish zamonaviy ta'lim sohasida muhim o'rin tutadi. Bunday resurslar o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasini kuchaytiradi, ta'lim sifatini oshiradi hamda mustaqil ishlash, o'z-o'zini anglash, kreativ fikrlash, o'z bilimini baholash



kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Multimediyali resurslarni loyihalashda ularning tuzilishi, individual yondashuvi, interaktivligi va adaptivligi alohida ahamiyat kasb etadi. Aniq maqsadlar asosida yaratilgan bu resurslar orqali o‘quvchilar o‘zlari uchun qulay muhitda, mustaqil va samarali ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli, zamonaviy ta’lim tizimi uchun multimediya muhitida mustaqil o‘qishga rag‘batlantiruvchi resurslarni yaratish istiqbolli va dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдукодиров А.А., Хаитов А.Ф., Шодиев Р.Р. "Ахборот технологиялари". Тошкент: "Ўқитувчи", 2002.
2. Гуломов С.С., Алимов Р.Х., ва бошқалар. "Ахборот тизимлари ва технологиялари". Тошкент: "Шарқ", 2000.
3. Махмудова М.А., Насирова Ш.Н. The importance of electronic education resources in the effectiveness of the lesson. Electronic Journal of Actual Problems of Modern Science, Education and Training. Урганч, № 5, 2019. - С.1-8.
4. Махмудова М.А., Носирова Ш.Н. "Электронная рабочая тетрадь как средство реализации деятельностного подхода при изучении информатики в базовом курсе". "Иктисодиётнинг тармоқларини инновацион ривожланишида ахборот-коммуникация технологияларининг аҳамияти". Республика илмий техник анжуман, Тошкент, 14–15 март, 2019, 516–518-бетлар.

/